O'spirinlarda kasbiy tanlov noaniqligi sharoitida mustaqil qarorlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	546
<i>Karimova Gulxumor Shodi qizi</i>	
ChatGPT kabi til modellarining ta'lim va fan sohasiga ta'siri	550
<i>Djabbarova Xabiba Kuvandikovna</i>	
Biologiya ta'limida qo'llaniladigan masala va mashqlarning turlari, mazmuni va kreativlikni rivojlantirishdagi o'rni	554
<i>Yusupova Lobar Nizomjon qizi, Raxmatov Uchkun Ergashevich</i>	
Сравнительный анализ русской и узбекской концептосфер в контексте преподавания РКИ.....	560
<i>Рустамова Феруза Махмуджановна</i>	
Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbiy madaniyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari	565
<i>Imomov Musurmon Pirnazarovich</i>	
Boshlang'ich ta'limda aksiologik qadriyatlar va raqamli kompetensiyalarni uyg'un rivojlantirish metodikasi.....	572
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ijodkorligini rivojlantirishda klaster integratsiyasi va refleksiv yondashuvning o'rni	576
<i>Shabbazova Nodira Xamzayevna</i>	
Umumta'lim maktablarida immersiv texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish	579
<i>Axmedova Dilnoza Baxtiyor qizi</i>	
Tasviriy san'at ta'limida kompozitsiya o'qitishning takomillashtirilgan metodik tizimi.....	581
<i>Karshiboyeva Dilafuz Boxodirovna</i>	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda refleksiv topshiriqlarning o'rni .	584
<i>Altibayeva Malika Kuvandikovna</i>	
STEAM yondashuvi asosida rivojlantiruvchi markazlarning samaradorligini oshirish yo'nalishlari.....	587
<i>O'rinova Feruza O'ljayevna, To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Aholi o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	591
<i>Davulov Ozodbek Qalandarovich</i>	
Tasavvufda ma'naviy tarbiya tushunchasi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	595
<i>Satimova Sevinch Sardorbekovna</i>	
Teaching Literary and Non-Literary Forms of Speech to Young Learners.....	600
<i>Nargiza Tulyaganova</i>	
Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni boshqarish tizimini takomillashtirishning metod va mexanizmlari	604
<i>Aziboyev Shuhrat Olimovich</i>	
Cerebral falajli bolalarda sensor, diqqat va motor funksiyalar integratsiyasining faktorli tahlili	608
<i>Karimberdiyev Azamat Axmadjon o'g'li</i>	
O'smirlik davrida emotsional intellektni namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	614
<i>Djumabaeva Manzura Bagibekovna, Zoirova Laylo Alisher qizi, Umirboyeva Zaxro Dilmurod qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim modellari mohiyati va ularning pedagogik tizimdagi o'rni (4K, 5E, 5I modellari misolida).....	617
<i>Raxmatov Uchkun Ergashevich, Qodirova Marjona Azamat qizi</i>	
Ayollarni iqtisodiy faollikka tayyorlashda o'quv dasturlarini loyihalash tamoyillari	624
<i>Diyarova Shaxloxon Rovshan qizi</i>	



Interfaol ta'lim metodlari asosida o'qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi: tajriba-sinov natijalari tahlili	628
Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi	
Raqamli muhitda maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining qo'shimcha ta'limini tashkil etish: tadqiqotlar sharhi	633
Amanova Dilorom Faxritdin qizi	
Kognitiv tilshunoslikda skript atamasi va uning voqelanish mexanizmlari	637
Fayzullayev Shohrux	
The Concept of Blended Learning and its Role in the Modern Educational Paradigm	641
Fozilova Maxina Adashevna	
Finlyandiya boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika fanini o'qitish metodikasi	645
G'aybulloyeva Yulduz Mexriddinovna	
Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish	651
Isoqov Shohruh Turabek o'g'li	
Communicative-Pragmatic Analysis of Binary-Based Paremias in English, Uzbek, and Russian Languages	654
Jumanova Sabrina Vaydullo kizi	
Internet-risk profilaktikasining bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashdagi o'rni	659
Mamatxanova Nargiza Toxirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	663
N. Sh. Abdullayeva, F. R. Valiyeva, S. S. Raximova	
Musiqiy-ritmik harakatlarning asosiy komponentlari va ularni rivojlantirishda SI imkoniyatlari	667
O. A. Shodiyeva	
Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik xususiyatlari ..	672
Y. R. Azzamov	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsion yondashuv asosida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari	676
Yakubova Zilola Zikirovna	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarda mas'uliyatni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	679
Teshayeva Dilnoza Chori qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat turlari asosida estetik tarbiyalash masalalari ..	684
Yuldasheva Dilshoda To'liqinovna	
Профессиональная рефлексия как фактор развития научного интеллекта будущего педагога в системе педагогического образования	688
Анварова Хуснора, Исохонова Азиза	
Толерантность в мультикультурном обществе	692
Бекбосынова З. К.	
Методика работы над ошибками как средство повышения грамотности	696
Исмаилова Мадинабону	
Методы и подходы к развитию профессиональной лексической компетенции студентов военных направлений	701
Хамидова Нигора Тулкуновна	



KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA SKRIPT ATAMASI VA UNING VOQELANISH MEXANIZMLARI

Fayzullayev Shohrux
SamDU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada R. Shank va R. Abelson tomonidan ishlab chiqilgan skript nazariyasi kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Skriptlar inson tafakkurida voqealarni tushunish, taxmin qilish va izohlashning asosiy mexanizmi sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada situatsion, personal va instrumental skript turlari, shuningdek, interferensiya va distraksiya tushunchalari keng yoritiladi. Tadqiqot natijalari skript nazariyasining nutqni tushunishdagi markaziy rolini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: skript, kognitiv tilshunoslik, tushunish, inferensiya, interferensiya, distraksiya, situatsion skript, personal skript, instrumental skript.

Abstract: This article analyzes the script theory developed by Roger Schank and Robert Abelson from the perspective of cognitive linguistics. Scripts are considered as a fundamental mechanism for understanding, predicting, and interpreting events in human cognition. The article examines situational, personal, and instrumental types of scripts, as well as the concepts of inference, interference, and distraction. The research results demonstrate the central role of script theory in speech comprehension.

Key words: script, cognitive linguistics, understanding, inference, interference, distraction, situational script, personal script, instrumental script.

Аннотация: В данной статье теория скриптов, разработанная Roger Schank и Robert Abelson, анализируется с точки зрения когнитивной лингвистики. Скрипты рассматриваются как основной механизм понимания, прогнозирования и интерпретации событий в человеческом мышлении. В статье подробно освещаются виды скриптов: ситуационный, персональный и инструментальный, а также понятия интерференции и distrакции. Результаты исследования показывают центральную роль теории скриптов в процессе понимания речи.

Ключевые слова: скрипт, когнитивная лингвистика, понимание, интерференция, интерференция, distrакция, ситуационный скрипт, персональный скрипт, инструментальный скрипт.

KIRISH

Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda insonning nutqni qanday tushunishi masalasi markaziy o'rinni egalaydi. Bu borada R. Shank va R. Abelson tomonidan ishlab chiqilgan skript nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga ko'ra, insonning tushunishi real voqealarni to'g'ridan to'g'ri qabul qilish emas, balki oldindan mavjud bilim strukturalari bo'lgan skriptlar orqali amalga oshadi. Skript atamasiga Sh. Safarov quyidagicha ta'rif beradi: "Inson tafakkurida aks etayotgan voqealarning me'yoriy ketma-ketligi namunasidir" (Safarov, 2006: 38). Shuningdek, tadqiqotchi "Tilshunoslik terminlari lug'ati"da skriptni ma'lum bir hodisa bilan bog'liq harakatlar ketma-ketligi tasviri sifatida izohlab, "sxema" tushunchasi bilan deyarli bir xil ma'noda ishlatilishini aytadi (Safarov, 2023: 250). Masalan, "restoran" skripti kirish, o'tirish, buyurtma berish, ovqatlanish va to'lov qilish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

D. Xudoyberganova skript terminiga "...sabab-oqibat munosabatlari asosida tizimiy bog'langan, stereotip takrorlanuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan voqealarning me'yoriy ketma-ketligi namunasi..." deb izoh beradi (Xudoyberganova, 2024: 75). Demak, skript insonning tajribasi asosida shakllangan va muayyan vaziyatda sodir bo'ladigan voqealar ketma-ketligini aks ettiruvchi mental modeldir. Shuningdek, skript insonning ijtimoiy tajribasi, institutsional bilimlari va takroriy faoliyati asosida shakllangan murakkab mental tuzilma hamdir.



Sh. Safarovning fikriga ko'ra, skriptlarning ko'p qismi bolalik davridanoq tajriba va kuzatuvlar natijasida paydo bo'ladi (Safarov, 2006: 38).

Skriptlar inson tafakkurida avtomatik ravishda faollashadi va yangi ma'lumotni tushunishda asos bo'lib xizmat qiladi. Skriptlar quyidagi xususiyatlarga ega: avtomatik faollashish, voqealarni oldindan taxmin qilish, yetishmayotgan ma'lumotlarni to'ldirish va tushunishni tezlashtirish. Masalan, "U restoranga kirdi" gapidan darhol bilish mumkinki, u yerda stol, menyu, taom bor va bu avtomatik faollashish hisoblanadi. "U do'konga kirdi va chiqib ketdi" deyilganida esa keyingi voqealar taxmin qilinadi: nimadir sotib olish, pul to'lash, kassaga borish kabi. "U restoranga kirdi, ovqatlandi, chiqib ketdi" gapiga e'tibor qaratsak, u yerda to'lov qilingani, ofitsiantga nima buyurgani haqida ma'lumot yo'q. Ammo skript bu "bo'sh zona"larni to'ldirishga harakat qiladi. "O'quvchi daftariga yoza boshladi" deyilganida ortiqcha tahlil qilishga hojat yo'q. Bu yerda allaqachon dars bo'layotgani anglashiladi hamda tushunish jarayoni tezlashadi.

R. Shank va R. Abelson skriptning asosiy turlarini sanab o'tadi. Bular: situatsional, personal va instrumental skriptlardir (Shank and Abelson, 1977).

Situatsional skriptlar ijtimoiy vaziyatlarga bog'liq bo'lib, unda bir nechta ishtirokchilar va ularning rollari mavjud bo'ladi (Shank and Abelson, 1977: 219). Masalan, "restoran" skriptida mijoz, ofitsiant va oshpaz rollari mavjud. Bu skript quyidagi komponentlardan iborat bo'ladi: rollar, voqealar ketma-ketligi, umumiy maqsad. Situatsional skriptlar ijtimoiy muhitda harakatni tartibga soladi va insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqani soddalashtiradi. Eng muhimi, situatsional skriptlarda hamma nima bo'lishini oldindan biladi va ko'pincha rollar aniq bo'ladi. Masalan, "do'kon" skripti kirish, mahsulotlarni ko'rish, tanlash, kassaga borish, to'lash, chiqish kabilardan iborat. Rollar aniq: mijoz va sotuvchi. Kimdir "Endi nima qilaman?" deb savol bermaydi. Chunki tayyor skript mavjud.

Personal skriptlar esa individual ongga xos bo'lib, tashqi situatsion skriptga qo'shimcha ravishda ishlaydi. Bu skriptlar yashirin maqsadlarni ifodalaydi (Shank and Abelson, 1977: 220). Masalan, "restoran" vaziyatida mijozning ofitsiant bilan tanishishga urinishi personal skript hisoblanadi. Bunday skriptlar faqat aktorning ongida mavjud bo'lib, boshqa ishtirokchilar tomonidan anglanmasligi mumkin (Shank and Abelson, 1977: 220). Bunday skriptlar odatda shaxsiy bo'ladi. Misol uchun, "dars" skripti hamma uchun umumiy situatsional skriptdir. Biroq dars jarayonida talaba o'qituvchidan yaxshi baho olishni istasa, unda vaziyatni baholash, qaror, harakat va natija personal skriptni hosil qilishi mumkin. Bunday holda talaba oldingi partaga o'tirishi, ko'p savol berishi, doimiy faol bo'lishi mumkin.

Instrumental skriptlar aniq harakatlar ketma-ketligini ifodalaydi. Ular odatda bitta ishtirokchiga tegishli bo'lib, qat'iy tartibga ega. Masalan, mashinani ishga tushirish, sigaret yoqish, ovqat tayyorlash kabi (Shank and Abelson, 1977: 221). Bu skriptlar kam o'zgaruvchan bo'lib, ko'proq texnik jarayonlarni aks ettiradi. Shuningdek, bunday skriptlarda hamma narsa aniq va qat'iy tartibga ega bo'ladi. "Telefonni yoqish" skriptida quvvat tugmasini bosish, parol kiritish kabi elementlar bir-birini taqozo qiladi hamda bir-birisiz ishlamaydi. Boshqa skript turlaridan farqli o'laroq, instrumental skriptlarda odatda rollar bitta bo'ladi va kognitiv jihatdan katta kuch talab qilmaydi.

Skript jarayonida ba'zi kutilmagan holatlar yuzaga keladiki, ular interferensiya va distraksiya tushunchalari orqali izohlanadi. Interferensiya skriptning normal davom etishiga to'sqinlik qiluvchi ichki buzilish bo'lib, u odatda ikki turga ajraladi: to'siq (obstacle) va xatolik (error) (Shank and Abelson, 1977: 214-217). To'siq (obstacle) zarur shartning yetishmasligi bilan bog'liq bo'lib, skriptning bajarilishiga to'sqinlik qiladi. Masalan, do'konda xaridorning to'lov qilish uchun mablag'i yetarli bo'lmasligi yoki kassaning vaqtincha ishlamasligi shunday holatdir. Xatolik (error) esa harakat amalga oshirilgan bo'lsa-da, uning noto'g'ri natija bilan yakunlanishini anglatadi. Masalan, sotuvchining boshqa mahsulotni berib yuborishi yoki xaridorning noto'g'ri mahsulotni tanlashi bunga misol bo'la oladi. Distraksiya esa skriptdan vaqtincha chiqish yoki e'tiborning boshqa faoliyatga yo'naltirilishi bilan xarakterlanadi. Masalan, xaridorning do'konda boshqa tanishi bilan suhbatga kirishib ketishi yoki telefonga chalg'ib qolishi asosiy skriptning uzilishiga olib keladi va yangi kichik faoliyatning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Demak, interferensiya skript ichida yuzaga keladigan muammo sifatida, distraksiya esa skriptdan chiqishga olib keluvchi omil sifatida talqin qilinadi (Shank and Abelson, 1977: 214-217). Skript nazariyasiga ko'ra, tushunish jarayoni yangi ma'lumotni oldingi tajribalar bilan bog'lash orqali amalga oshadi. Inson yangi voqealarni mavjud skriptlar asosida interpretatsiya qiladi. Bu jarayon quyidagicha ishlaydi: skript faollashadi, yangi ma'lumot skript bilan solishtiriladi. Agar mos kelmasa, yangi interpretatsiya qidiriladi. Quyida "dars" skriptining kognitiv tahlilini ko'rib chiqamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

"Dars" skriptida bir nechta asosiy rollar mavjud: o'qituvchi, o'quvchi, sinf jamoasi, ba'zan esa direktor yoki qo'shimcha ishtirokchilar ham paydo bo'lishi mumkin. Bu skriptning obyektlari sifatida sinf xonasi, doska, parta, kitob, daftar, ruchka, kundalik, baho kabilar olinishi mumkin. "Dars" skriptining kirish shartlari sifatida o'quvchilarning sinfdan mavjudligi, o'qituvchining tayyorligi, o'quv materiali va vaqtning belgilanganligi ko'rsatiladi.



Natijalari esa mavzuning o'zlashtirilishi, topshiriqning bajarilishi, baholash, tartibning saqlanishi yoki buzilishi bilan ifodalanadi. "Dars" skriptining odatiy ketma-ketligi quyidagicha tavsiflanishi mumkin:

1. O'qituvchining darsga kirishi.
2. Salomlashish.
3. Davomatni aniqlash.
4. Avvalgi mavzuni so'rash.
5. Yangi mavzuni bayon qilish.
6. Savol-javob.
7. Mustahkamlash.
8. Baholash va uyga vazifa berish.

Bu ketma-ketlik barcha maktablarda mutlaq bir xil bo'lmasa-da, umumiy kognitiv andoza sifatida mavjud bo'ladi. O'quvchi ham, o'qituvchi ham darsdan nima kutishni oldindan biladi. Ana shu kutishning o'zi skriptning kognitiv asosini tashkil etadi.

"Dars" skriptining asosiy vazifasi nutqiy va noverbal xatti-harakatlarni tushunishni yengillashtirishdir. Masalan, o'qituvchi "daftaringizni oching" desa, o'quvchi bu buyruqni alohida tahlil qilmaydi. U dars skriptiga tayanib, keyingi harakatning nima ekanini biladi. Xuddi shuningdek, o'qituvchining doskaga chiqishi, sinfga savol berishi yoki baho qo'yishi ham oldindan tanish skript ichida interpretatsiya qilinadi. Umuman olganda, dars jarayonida ko'plab nutqiy aktlar to'liq emas, qisqa yoki elliptik shaklda berilishi mumkin, chunki ularning ma'nosi umumiy skript orqali tiklanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Dars" skriptida interferensiya holatlari ham kuzatiladi. Masalan, o'quvchining daftarini unutib kelishi "to'siq" sifatida talqin qilinishi mumkin, chunki bu dars harakatining normal davom etishiga to'sqinlik qiladi. O'qituvchining noto'g'ri savol berishi, darsga aloqasiz vazifani yuklashi yoki texnik vositaning ishlamay qolishi "xato" sifatida ko'rilishi mumkin. Bunday holatda skript o'zining odatiy yo'lidan chiqib, "tuzatish" yo'liga o'tadi: o'qituvchi qo'shimcha izoh beradi, boshqa usulga o'tadi yoki vaziyatni tuzatishga urinadi. Distraksiya ham "dars" skriptida tez-tez uchraydi. Masalan, o'quvchining telefonga chalg'ishi, sinfdoshi bilan gaplashib ketishi yoki tashqaridan kelgan shovqin dars skriptidan vaqtincha chiqishga olib keladi. Bu holatda asosiy maqsad – o'quv faoliyati – to'xtaydi va yangi kichik maqsad vujudga keladi: tartibni tiklash, diqqatni qayta jamlash, nojo'ya xatti-harakatni to'xtatish. Demak, "dars" skripti ham "restoran" skripti singari interferensiya va distraksiyalar bilan murakkablashishi mumkin.

"Dars" skriptining yana bir muhim jihati shundaki, u faqat situatsion bo'libgina qolmay, personal skriptlar bilan ham kesishadi. O'qituvchi tashqi jihatdan darsni olib borayotgan bo'lsa-da, uning ichki maqsadi sinfni boshqarish, intizomni saqlash, obro' qozonish yoki muayyan o'quvchini rag'batlantirish bo'lishi mumkin. Xuddi shuningdek, o'quvchining ham darsdagi tashqi ishtiroki ortida turli personal skriptlar yotadi: faol ko'rinishga intilish, baho olish, o'qituvchiga yoqish, sinfdoshlar oldida o'zini ko'rsatish yoki, aksincha, darsdan qochish. Shu sababli dars jarayonida yuzaga keladigan ayrim nutqiy va xulqiy hodisalarni faqat umumiy situatsion skript bilan emas, balki personal skriptlar bilan birgalikda tushuntirish lozim. Masalan, o'quvchi kutilmaganda juda faol savol bera boshlasa, bu faqat "darsdagi ishtirok" emas, balki "o'zini ko'rsatish" personal skriptining namoyoni ham bo'lishi mumkin. Yoki o'qituvchining bir o'quvchiga qayta-qayta murojaat qilishi faqat didaktik maqsad emas, balki uni "rag'batlantirish" yoki "tartibga solish" personal skripti bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu jarayonda inferensiya (xulosa chiqarish) markaziy rol o'ynaydi. Skriptning o'zi to'liq axborotni bermasdan, yetishmayotgan bo'g'inlarni inferensiya orqali to'ldirishga xizmat qiladi. Misol uchun, matnda faqat "o'qituvchi jurnalni ochdi" deyilsa, o'quvchi yoki tinglovchi avtomatik ravishda "davomat tekshirildi" yoki "dars boshlandi" degan xulosani chiqaradi. Bu yerda inferensiya skriptga tayanadi, ya'ni skript inferensiyani boshqaradi. Ba'zi hollarda esa inferensiya skriptni o'zgartiradi yoki qayta quradi. Masalan, agar "o'qituvchi sinfga kirib, hech narsa demasdan telefon bilan gaplasha boshladi" deyilsa, bu odatiy dars skriptiga mos kelmaydi.

Tinglovchi bu yerda yangi inferensiya qiladi: bu hali dars boshlanmagan yoki noodatiy vaziyat yuz bermoqda. Demak, inferensiya faqat skriptga bo'ysunmaydi. Aksincha, u skriptni dinamik ravishda qayta tashkil qiladi. "Imtihon" skripti ham kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan muhim situatsion skriptlardan biri hisoblanadi. Ushbu skript muayyan institutsional vaziyat bilan bog'liq bo'lib, unda ishtirokchilar, rollar va voqealar ketma-ketligi oldindan shakllangan bo'ladi. "Imtihon" skriptining asosiy rollari quyidagilardan iborat: imtihon oluvchi (o'qituvchi), imtihon topshiruvchi (talaba yoki o'quvchi) hamda, ba'zan, kuzatuvchi shaxslar. Skriptning



asosiy obyektlari sifatida savol varaqalari, biletlar, daftar, ruchka va baholash vositalari xizmat qiladi. "Imtihon" skriptining odatiy ketma-ketligi quyidagicha tavsiflanadi: imtihon boshlanishi, talabalarning auditoriyaga kirishi, savollarni olish yoki bilet tanlash, tayyorgarlik ko'rish, javob berish, baholash, natijani e'lon qilish.

Mazkur skriptda barcha ishtirokchilar nima sodir bo'lishini oldindan biladi, ya'ni skript kognitiv jihatdan umumiy bilim sifatida mavjud bo'ladi. Shu sababli imtihon jarayonida ko'plab nutqiy aktlar qisqa va to'liq bo'lmagan shaklda berilishi mumkin, ammo ular skript asosida to'liq anglanadi. "Imtihon" skriptida interferensiya holatlari ham kuzatiladi. Masalan, talabani javobni unutishi, savolni noto'g'ri tushunishi yoki texnik muammolar yuzaga kelishi skriptning normal kechishiga to'sqinlik qiladi. Bu holatlar "to'siq" yoki "xato" sifatida talqin qilinadi.

Distraktsiya ham ushbu skriptda mavjud bo'lib, talabani chalg'ishi, qo'rquv hissi va tashqi omillar ta'sirida diqqatning pasayishi skriptning vaqtincha buzilishiga olib keladi. Shuningdek, "imtihon" skripti ko'pincha personal skriptlar bilan kesishadi. Masalan, talabani asosiy maqsadi bilimini namoyish etishdan tashqari, yuqori baho olish, muvaffaqiyatsizlikdan qochish, o'zini ko'rsatish kabilar bo'lishi mumkin. Bu esa uning xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, "imtihon" skriptida inferensiya jarayoni muhim rol o'ynaydi. Masalan, "talaba javob bera boshladi" deyilganda, tinglovchi avtomatik ravishda uning savolni olganini, tayyorgarlik ko'rganini va baholash jarayoni yaqinlashayotganini anglaydi. Bu esa skriptning taxmin qilish funksiyasini ko'rsatadi.

XULOSA

Shunday qilib, skript nazariyasi inson tili va tafakkurini tushunishda muhim model hisoblanadi. Ushbu nazariya kognitiv tilshunoslik doirasida insonning bilim strukturalarini, nutqni tushunish mexanizmlarini hamda voqelikni idrok etish jarayonlarini izohlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bussmann H. Routledge Dictionary of Language and Linguistics. London and New York – 1996.
2. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. Blackwell Publishing – 2008. 424-bet.
3. Shank R., Abelson R. Scripts, Plans, Goals and Understanding. – 1977. 214–221-betlar.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. "Sangzor" nashriyoti, Jizzax – 2006. 38-bet.
5. Safarov Sh. Tilshunoslik terminlari lug'ati. "Lesson Press", Toshkent – 2023. 250-bet.
6. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. "Bookmany Print", Toshkent – 2024. 75-bet.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.